

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№7

2025  
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google  
Scholar

OPEN  
ACCES

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN  
INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU  
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
1931



SIMON KARIMOV NOMIDDI  
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI  
1955

TDTU  
TOŠKENT DAVLAT MOLNIYANING YASSORI ACADEMICHESKIY UNIVERSITETI  
1955

TJU  
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI  
1955

TJU  
TOSHKENT A'RIZUQISH UNIVERSITETI  
1991

TJU  
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA INSTITUTI  
1991

TJU  
TOSHKENT POLITEKNIKA INSTITUTI  
1991



# **muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekomunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Yashil ish o'rirlari va ekologik ta'lif: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar .....	12
<b>Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona</b>	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri .....	16
<b>Babanazarova Nilufar Xolmatovna</b>	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati .....	23
<b>Rustamova Gulmira Alikulova</b>	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi .....	30
<b>Uzaqov Ortik Shaymardanovich</b>	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati .....	35
<b>Djalilov G'ayrat Qaxramanovich</b>	
Oliy ta'lif muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lif muassasalari o'rta sidagi hamkorlik misolida) .....	39
<b>Rahmatov Shuxrat Axatovich</b>	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash .....	43
<b>Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich</b>	



# DAVLAT QARZI SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI MUSTAHKAMLASH

**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Maqolada davlat qarzi siyosatini samarali tashkil etish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalari yoritilgan. Unda davlat qarzining hajmi, tarkibi va dinamikasi tahlil qilinib, fiskal xavflar va iqtisodiy barqarorlik o'tasidagi o'zaro bog'liqlik asoslab berilgan. Shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida qarz siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari ko'rsatib o'tilgan hamda O'zbekiston sharoitida davlat qarzidan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar bildirilgan..

**Kalit so'zlar:** davlat qarzi, fiskal siyosat, makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi qarz, ichki qarz, qarzni boshqarish, budget taqchilligi, iqtisodiy xavfsizlik.

**Abstract:** The article explores the issues of ensuring macroeconomic stability through the effective organization of public debt policy. It analyzes the volume, structure, and dynamics of public debt, and substantiates the interrelationship between fiscal risks and economic stability. Moreover, based on the experience of foreign countries, directions for improving debt policy are presented, and proposals are made to increase the efficiency of public debt utilization in the context of Uzbekistan.

**Keywords:** public debt, fiscal policy, macroeconomic stability, external debt, internal debt, debt management, budget deficit, economic security.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы обеспечения макроэкономической стабильности посредством эффективной организации политики государственного долга. Проанализированы объём, структура и динамика государственного долга, обоснована взаимосвязь между фискальными рисками и экономической стабильностью. Также представлены направления совершенствования долговой политики на основе опыта зарубежных стран и даны предложения по повышению эффективности использования государственного долга в условиях Узбекистана.

**Ключевые слова:** государственный долг, фискальная политика, макроэкономическая стабильность, внешний долг, внутренний долг, управление долгом, бюджетный дефицит, экономическая безопасность.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat moliyasi tizimining barqarorligi va samaradorligi milliy iqtisodiyotning umumiyligi rivojlanish darajasi, makroiqtisodiy muvozanat va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, davlat qarzi siyosati ushbu tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida byudjet taqchilligi, joriy va kapital xarakatlarni moliyalashtirish, strategik investitsiya loyihalarini amalga oshirish hamda global moliyaviy oqimlardan samarali foydalanishda muhim rol o'ynaydi.

Jahon moliyaviy bozorlaridagi beqarorliklar, pandemiya oqibatida yuzaga kelgan fiskal bosim, geosiyosiy xavfsizlik bilan bog'liq noaniqliklar, shuningdek, tashqi savdo va to'lov balanslaridagi o'zgaruvchanlik davlat qarzi siyosatining qayta ko'rib chiqilishini taqozo qilmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, davlat qarzini boshqarish samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy muvozanatni saqlab qolish, infliyatsiyani jilovlash, investitsion muhitni yaxshilash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish mumkin.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasida ham davlat qarzi hajmining yildan-yilga ortib borayotgani, u bilan bog'liq fiskal risklarning ko'payishi, davlat byudjetiga tushayotgan bosim, tashqi qarzning valyuta risklari bilan bog'liq muammolari va ichki qarzning bozor mexanizmlaridan foydalanish darajasi — mazkur sohada ilmiy-amaliy izlanishlarni yanada chuqurlashtirishni taqozo etmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy islohotlar bosqichi davlat xarakatlaring kengayishi, investitsion dasturlarni moliyalashtirish hajmining oshishi hamda ijtimoiy sohalarni qo'llab-quvvatlash zarurati bilan tavsiflanmoqda. Bu esa davlat byudjeti taqchilligini moliyalashtirishda qarz vositalaridan foydalanish hajmining ortishiga olib kelmoqda. Xususan, 2024-yil holatiga ko'ra, davlat tashqi qarzi YAIMning 35 foizidan ortig'ini tashkil qilmoqda, bu esa qarz barqarorligi ko'rsatkichlariga doir xalqaro me'yoriy chegaralarga yaqinlashib borayotganidan dalolat beradi.



Mazkur holatda davlat qarzi siyosatining faqat miqdoriy ko'rsatkichlari emas, balki uning tuzilmasi, muddati, foiz stavkalari, valyuta tarkibi, qarz yuki taqsimoti, samaradorlik darajasi, qarzdan foydalanishning qaytaruvchanlik ko'rsatkichi, iqtisodiy o'sishga ta'siri kabi mezonlar asosida kompleks baholanishi dolzarb masalaga aylanmoqda. Xalqaro tajriba ko'rsatishicha, qarz siyosatini noto'g'ri yuritish inflyatsiya bosimini kuchaytirishi, valyuta kursining beqarorligiga sabab bo'lishi, kredit reytingining pasayishiga va investorlar ishonchining susayishiga olib kelishi mumkin.

Shu boisdan, O'zbekiston sharoitida davlat qarzidan foydalanish samaradorligini oshirish, u bilan bog'liq fiskal va valyuta risklarini kamaytirish, qarz mablag'larining iqtisodiyotning real sektori orqali o'sishga hissa qo'shishini ta'minlash, qarz yukining YAIMga nisbatan barqaror darajasini ushlab turish, qarzning maqsadli va shaffof foydalanilishini kuchaytirish strategik vazifa sifatida ko'rilmoxda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat qarzi siyosati va uning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri xalqaro va milliy darajada doimiy tahlil etib kelinayotgan dolzarb masalalardan biridir. Turli mamlakatlar tajribasi, ilmiy izlanishlar va amaliyotlar asosida davlat qarzining hajmi, tarkibi, boshqaruvi strategiyasi va uni optimallashtirish usullariga oid yondashuvlar shakllangan.

Xalqaro adabiyotlarda Oussama Elkhalfi va hammualliflar (2024) o'z tadqiqotida rivojlanayotgan davlatlarda tashqi qarzning iqtisodiy o'sishga ta'sirini empirik model asosida baholagan. Ularning fikricha, qarz miqdorining me'yoriy chegaradan oshishi o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga o'xshash xulosaga Irfan Qureshi va Zara Liaqat (2020) ham kelgan bo'lib, ular panel VAR modeli orqali uzoq muddatli tashqi qarz oqimining iqtisodiy barqarorlikka xavf tug'dirishini asoslab bergenlar.

Mintaqaviy kontekstda Keshmeer Makun (2021) Fiji misolida qarz va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi chiziqli va chiziqsiz bog'liqlikni o'rganib, qarz boshqaruvi strategiyasining noaniqligi fiskal izchillikni susaytirishini ko'rsatgan. Shu bilan birga, Edo Nneka va hammualliflar (2020) Sahroi Kabiri Afrikasi mamlakatlari misolida eksport tushumlari pasayishi fonida qarz yuki va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi nomutanosiblikni ochib bergen.

O'zbekiston kontekstida Eshnazarov T. Sh. (2013) davlat byudjeti ijrosi va g'azna xarajatlarining boshqaruvi orqali fiskal siyosat samaradorligini oshirish muhimligini ta'kidlagan. Komolov O. va Sultonov Sh. (2014) moliyaviy innovatsiyalar, xususan, davlat va korporativ xaridlar orqali qarz boshqaruvida samaradorlikni oshirish masalalariga e'tibor qaratgan.

Davlat qarzining boshqaruvi bo'yicha xalqaro tajribalarni umumlashtirgan Xramkin A. (2008) esa davlat xarid tizimlaridagi markazlashtirilgan yondashuvlar orqali qarz resurslarini maqbullashtirishni taklif qiladi.

O'zbekiston tajribasiga to'g'ridan to'g'ri oid maqolalarda, xususan, Sheraliyev J. J. (2020) tomonidan pandemiya davrida davlat qarzi barqarorligini ta'minlashga qaratilgan strategik takliflar ilgari surilgan. Unda qarzning valyuta tuzilmasi, foiz stavkalari va qarzni qaytarish grafiklari makroiqtisodiy barqarorlik kontekstida ko'rib chiqilgan.


Yuqoridaq adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat qarzi boshqaruvida samaradorlik, shaffoflik, fiskal intizom, maqsadli moliyalashtirish va o'z vaqtida qaytarish mezonlari asosiy e'tiborga loyiq yo'nalishlardir. Shuningdek, qarz siyosatini iqtisodiy o'sish strategiyalari bilan integratsiyalash, xorijiy tajribalarni moslashtirilgan holda tatbiq etish, qarz portfelini diversifikatsiya qilish hamda fiskal risklarni monitoring qilish muhim ilmiy-amaliy yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolani tayyorlashda me'yoriy-huquqiy hujjatlar, foydalanilgan adabiyotlar va internet manbalaridagi rasmiy ma'lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, iqtisodchi olimlarning mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil etildi. Mavzuni o'rganish davomida umumiqtisodiy yondashuvlar bilan bir qatorda tizimli tahlil, umumlashtirish, abstrakt-mantiqiy fikrlash va statistik usullardan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Davlat xaridini tashkil etishning xorij tajribasi tahlili ko'rsatishicha jahon amaliyotida bir qator modellar qo'llaniladi. Ular bir-birdan xaridning qamrovi, ishtiroy etuvchi xhjalik sub'ektlarning vakolatlari, savdolarni tashkil etishning markazlashish darajasi kabilar bilan farqlanadi (1-rasm).



**1-rasm: Davlat xaridini tashkil etish modellari [1]**

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadi, davlat xaridini tashkil etishda jahon amaliyotida bir qator modellar qo'llaniladi. Ular xaridning qamrovi, ishtirok etuvchi xo'jalik subyektlarining vakolatlari, savdolarni tashkil etish-dagi markazlashish darajasi kabi omillar bilan bir-biridan farqlanadi (1-rasm).

Markazlashgan model — bunda xarid uchun buyurtmalarni joylashtirish maxsus tashkilot yoki ijroiya hokimiyatining yagona tarkibiy bo'linmasi — xaridni tashkil etuvchi subyekt tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu model barcha tarmoq va bo'limlardan tushadigan arizalarni jamlaydigan xarid markazini tashkil etishni nazarda tutadi. Agar markazlashish darajasi yuqori bo'lsa, barcha turdag'i xaridlar uchun javobgar bo'lgan yagona maxsus idora shakllantiriladi.

Markazlashmagan model — bunda davlat buyurtmachisi o'z ixtisosligi bo'yicha xaridga buyurtmani mustaqil amalga oshiradi. Ushbu modelda har bir bo'lim o'z ehtiyojlari uchun xaridni alohida tartibda bajaradi. Shu maqsadda uning tarkibida xaridlarni amalga oshiruvchi maxsus tuzilma yoki bo'lim tashkil etiladi.

Ikkala modelning o'ziga xos afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Markazlashmagan model nisbatan egiluvchan bo'lib, ko'proq xarajatlarni talab qiladi. Markazlashgan model esa yirik hajmdagi ulgurji xaridlar orqali past narxlarni ta'minlasa-da, egiluvchan emasligi va tovarlar, ishlarni hamda xizmatlar sifati buyurtmachi ehtiyojlariga to'liq mos kelmasligi ehtimolini oshiradi.

Qisman markazlashgan modelda esa xaridga buyurtmani joylashtirish vakolati davlat buyurtmachisi bilan ixtisoslashgan tashkilot o'rtafiga hamkorlik asosida amalga oshiriladi.

Davlat mablag'larini oqilonqa boshqarish, xarid tizimi modellarini mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga mos tarzda shakllantirish davlat xaridlari siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tenderlar orqali xaridlarni tashkil etishda ochiqlik va erkin raqobatni ta'minlovchi mexanizmni joriy etish, narxlar monitoringini takomillashtirish, davlat buyurtmalari bo'yicha sharhnomalar ijrosi yuzasidan mas'uliyatni oshirish hamda tenderdan tashqari savdolarning xolisligini ta'minlash kabi masalalarni ilmiy-uslubiy va amaliy jihatdan chuqr o'rganish — davlat xaridi tizimini boshqarish sohasidagi islohotlarning dolzarbli-gini belgilab beradi.

- Davlat xaridini tashkil etishda hal etilishi lozim bo'lgan asosiy muammolar;
  - Davlat xaridi tizimini boshqarishning me'yoriy-huquqiy bazasi yetarlicha mukammal emasligi;
  - Byudjet xarajatlarini boshqarish uslubiyotida ayrim kamchiliklarning mavjudligi;
  - Xarid jarayonini amalga oshiruvchi va uni nazorat qiluvchi malakali kadrlar yetishmasligi;
  - Davlat xaridini boshqarishning zamonaviy elektron tizimini shakllantirish va rivojlanтирish zarurligi;
  - Kichik va xususiy tadbirkorlik subyektlarining xarid tizimidagi ishtirokini kengaytirish;
- Mamlakat miqyosida davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga ajratiladigan mablag'larni maqbullashtirish zarurati.

Davlat xaridlarini amalga oshirish va boshqarish tizimini isloh etish kompleks yondashuvni talab etadi. Islohotlar faqat qarorlar qabul qilish yoki vakolatli organ tashkil etish bilan cheklanib qolmasligi, balki davlat organlari o'rtafiga samarali hamkorlik va muvofiqlashtirilgan vakolatlar taqsimotini, tizimda kuchlar muvozanatini saqlovchi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Shu asosda, mamlakatimizda davlat xaridlarini amalga oshirish va boshqarish tizimini takomillashtirish, uning o'rta va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, kichik biznes subyektlarining faol ishtirokini ta'minlash iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bosqichida yechimini kutayotgan dolzarb vazifalardan bira bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlari institutining shakllanishi va amal qilishi isloh eti-layotgan holatda bo'lib, ushbu institut faoliyati uchun zarur bo'lgan institutsional muhit o'zgarib bormoqda.

Institutsional islohotlarni amalga oshirish mexanizmi iqtisodiyotning barqaror sur'atlarda rivojlanishini ta'minlashi lozim. Jumladan, davlat xaridlari institutini iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida rivojlanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlat xaridlari — bu ijtimoiy ne'matlar yaratish va ularidan foydalanish, institutsional me'yor va qoidalarni shakllantirish orqali iqtisodiy subyektlar o'rtafiga munosabatlar majmuasini o'zida mujassamlashtiruvchi institutdir.



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinchidan, davlat institutsional nazariya nuqtai nazaridan davlat xaridlari tizimidagi munosabatlar subyekti hisoblanadi. Subyekt sifatida davlat belgilangan maqsad va vazifalarga erishishni ko'zlaydi. Davlat xaridlari institutining turli vositalaridan foydalilanigan holda davlat pudratchilari, ijrochilari va ishtirokchilari bilan shartnoma munosabatlari shakllanadi. Davlat — bu institutning asosiy tashkilotchisi va birinchi shaxsidi. U hokimiyat organlari, byudjet, avtonom va xazina muassasalari nomidan buyurtmachi sifatida ishtirok etadi.

Ikkinchidan, davlat xaridlari institutining huquqiy-me'yoriy asoslari mavjud bo'lishi zarur. U xo'jalik subyektlarining faoliyatini tartibga soluvchi vosita sifatida iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olish imkonini beradi. Bu asos doimiy takomillashtirib borilishi lozim.

Uchinchidan, davlat xarid faoliyatining asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta'minlash (mudofaa buyurtmasi), davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash (davlat buyurtmasi), byudjet, avtonom va xazina muassasalari ehtiyojlarini qondirish (munitsipal buyurtma) va boshqalar.

To'rtinchidan, davlat xaridlari institutining modellarini vaqt o'tishi bilan subyektlar tomonidan o'zlashtirilishi va institutdagi uzilishlar tufayli o'rnatilgan qoidalarga rioya qilinmasligi holatlari yuzaga kelishi mumkin. Bu esa institutni evolyutsion rivojlanish jarayonida uzlusiz takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Eshnazarov T. Sh. Davlat byudjeti g'azna ijrosi: byudjet mablag'larini rejalashtirish va boshqarishning asosiy yo'nalishlari. "Iqtisod va moliya" ilmiy-amaliy jurnali, 2013-yil dekabr, №12, B. 2.
2. Komolov O., Sultonov Sh. Moliyaviy innovatsiyalar: davlat va korporativ xaridlar. "Moliya" ilmiy jurnali, 2014-yil fevral, №2, B. 24.
3. Olloyorov M., Xolmuradov D. Система государственных закупок в Узбекистане. <http://publicfinance.uz/materials>
4. Xramkin A. Международный опыт построения системы госзакупок. [http://www.epgz.ru/\\_goszakaz/\\_public/1397](http://www.epgz.ru/_goszakaz/_public/1397) (murojaat sanasi: 2008-yil 9-oktabr).
5. Burxanov U., Atamuradov T. Davlat xaridi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012-yil. – 152 b.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 7**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)